IPO ORQALI KAPITAL JALB QILISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI	1163
Mamatmurodov Alisher Saparboyevich	
ВОЗДЕЙСТВИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭКОНОМИКИ НА РАЗВИТИЕ БИЗНЕСА В УЗБЕКИСТАНЕ	1172
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
YANGI TITIB-TA'MINLAGICH TA'SIRIDA PAXTANI TITILISH JARAYONINING NAZARIY TAHLIL NATIJALARI	1178
Qurbanbaev Elyor Baxtiyarovich, Sobirov Doniyor Xolmurodovich	
TIJORAT BANKLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALARI.....	1183
Uralov Shavkat Makhramovich	
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARI.....	1188
Tuychiyev Abduraxmon G'ofurovich	
AGROTADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA EKSPORT LOGISTIKASI VA TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMALLASHTIRISHNING IQTISODIY MEKANIZMLARI	1193
No'monov Otabek O'rmonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA INQIROZ SHAKLLANISHIGA MAKROIQTISODIY VA TARMOQ OMILLARINING TA'SIRI.....	1198
O'rinboyev Doniyorjon Baxtiyorjon o'g'li	
5LP LINTERIDAGI CHIGIT ARALASHTIRGICHNI MODERNIZATSIYA QILISH BO'YICHA BAJARILGAN ISHLARNING TAHLILI VA TADQIQOT YO'NALISHLARINI BELGILASH	1204
Nazirov Raxmatjon Rasulovich, Karimov Maxmud Raxmatovich, Abduqahorov No'monbek Oybek o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGIDA BUG'DOY YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA UNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI	1209
Azamqulov Nurbek Ulug'bek o'g'li	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARAJATLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	1215
Fayziyev Rabim Alikulovich, Tohirova Zarifa Shuhrat qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1221
Ajibayeva Raiya Maxsutovna	



CHAKANA SAVDO TARMOG'INING MILLIY IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	1225
G'aybullayev Sarvar O'ktam o'g'li	
MEHNAT BOZORI STRUKTURASI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	1232
Soatmo'minova Zarnigor Olimjon qizi	
KORXONALAR AUDITIDA BLOKCHEYN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	1237
Tuyinov Botir Ismatovich	
THE ROLE OF NATIONAL MENTALITY AND VALUES IN INSTITUTIONAL TRANSFORMATION PROCESSES.....	1243
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ HR-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПЛАТФОРМ: ВЫЗОВЫ И РЕШЕНИЯ.....	1250
Амирджанова Ситора Сунатовна, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммадович, Урозбоев Хайрулла Муродбойевич, Маматкулов Хумоюн Бобирович	
HUDUDLARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGINI OSHIRISH VA MAHALLIY BOSHQARUV VAKOLATLARINI KENGAYTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL	1255
Sharipov Abror Komilovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION SIYOSAT	1260
Shokirov Firdavsbek Ulug'bekovich	
HUDUDIY RIVOJLANISHNI BAHOLASH METODOLOGIYASINING ILMIY MUAMMOLARI	1265
Sattorov Sanjar Abdumurodovich	
TRANSPORT TIZIMIDA YO'LOVCHI TASHISHNI TASHKIL ETISHNING ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1271
Sevara Aytieva Allaberdievna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA LIKVIDLIKNI QOPLASH ME'YORI (LCR) DINAMIKASI VA LIKVIDLIK BOSHQARUVI SAMARADORLIGI	1279
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI	1286
Xikmetov Nodirbek Ikromovich	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN CHAKANA BANK XIZMATLARINI KO'RSATISHNING JORIY HOLATI TAHLILI

Xikmetov Nodirbek Ikromovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Tadqiqot doirasida chakana bank xizmatlari uch asosiy toifaga ajratildi: jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb qilishga qaratilgan xizmatlar, moliyaviy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan kredit xizmatlari hamda tranzaksion xizmatlar. Har bir toifa alohida o'rganilib, uning bankning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, raqobatbardoshligini oshirish hamda mijozlar ehtiyojlarini samarali qondirishdagi strategik ahamiyati tahlil qilindi. Shu asosda chakana bank xizmatlarining turli yo'nalishlaridagi rivojlanish tendensiyalari va ularning moliyaviy resurslarni boshqarishga ta'siri baholandi.

Kalit so'zlar: chakana bank xizmatlari, jismoniy shaxslar, kredit, depozit, tranzaksion xizmatlar, bank kartalari, bankomatlar, to'lov terminallari, infokiosklar, masofaviy bank xizmatlari.

Abstract. Within the framework of the study, retail banking services were classified into three main categories: services aimed at attracting funds from individuals, credit services designed to meet financial needs, and transactional services. Each category was analyzed separately in terms of its strategic role in ensuring the financial stability of banks, enhancing competitiveness, and effectively meeting customer needs. Based on this, the development trends of various areas of retail banking services and their impact on financial resource management were assessed.

Keywords: retail banking services, individuals, credit, deposits, transactional services, bank cards, ATMs, payment terminals, infokiosks, remote banking services.

Аннотация. В рамках исследования розничные банковские услуги были классифицированы на три основные категории: услуги, направленные на привлечение средств физических лиц, кредитные услуги, ориентированные на удовлетворение финансовых потребностей, а также транзакционные услуги. Каждая категория была отдельно проанализирована с точки зрения её стратегической роли в обеспечении финансовой устойчивости банка, повышении конкурентоспособности и эффективном удовлетворении потребностей клиентов. На этой основе оценены тенденции развития различных направлений розничных банковских услуг и их влияние на управление финансовыми ресурсами.

Ключевые слова: розничные банковские услуги, физические лица, кредит, депозит, транзакционные услуги, банковские карты, банкоматы, платежные терминалы, инфокиоски, дистанционные банковские услуги.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va moliyaviy tizimning yetakchi instituti sifatida banklar o'z faoliyat yo'nalishlarini doimiy ravishda kengaytirib bormoqda. So'nggi yillarda banklar an'anaviy faoliyat (depozitlarni jalb qilish va kreditlash) doirasidan chiqib, mijozga yo'naltirilgan tizimlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Ushbu o'zgarish moliya bozoridagi raqobatning ortishi, texnologik taraqqiyotning tezlashishi hamda mijozlar ehtiyojlarining diversifikatsiyalashuvi bilan izohlanadi.

Hozirgi sharoitda aholi o'z turmush darajasini yaxshilash va hayot sifatini oshirishga intilmoqda. Shu bilan birga, ularning daromadlari cheklanganligi sababli moliyaviy resurslarni tejash, qarz mablag'laridan samarali foydalanish hamda qulay moliyaviy xizmatlardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, bank xizmatlariga bo'lgan talabning sezilarli darajada oshishiga hamda tijorat banklarining chakana xizmatlar portfelining kengayishiga olib kelmoqda.

Shu munosabat bilan tijorat banklari chakana bank xizmatlarini rivojlantirishni o'z strategiyasining ustuvor yo'nalishiga aylantirmoqda. Chakana bank xizmatlari orqali banklar iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari, to'lov



xizmatlari, jamg'arma mahsulotlari hamda raqamli bank yechimlarini individual mijozlar uchun taqdim etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, chakana bank xizmatlari moliyaviy inklyuziyani oshirishda muhim rol o'ynaydi, ya'ni aholini moliya tizimiga keng jalb etishga xizmat qiladi. Mobil banking, internet banking hamda agentlik xizmatlari kabi innovatsion yetkazib berish kanallari orqali banklar ilgari bank xizmatlaridan chetda qolgan aholi qatlamlariga ham bank tizimidan foydalanish imkonini yaratmoqda. Bu esa banklarning resurs bazasini mustahkamlash bilan birga iqtisodiyotda moliyaviy resurslar aylanishini tezlashtiradi.

Shunday qilib, chakana bank xizmatlarini kengaytirish banklar faoliyatida mahsulotga emas, balki mijozga yo'naltirilgan yondashuv qo'llanilayotganini ifodalaydi. Bunda asosiy e'tibor individual mijozlarning turli moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilib, shu orqali banklarning barqarorligi oshiriladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

1980-yillarning o'rtalarida moliya sohasidagi tadqiqotlar va tijorat tahlillari banklarning yangi daromad manbalarini yaratishi hamda an'anaviy chakana bank xizmatlariga nisbatan kuchaygan raqobatni yengish uchun yangi bozorlarga kirishi zarurligini ko'rsatdi. Shu davrda banklar qimmatli qog'ozlar va sug'urta kabi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratdi [1].

1990-yillarning o'rtalarida "yangi chakana" (new retail) modeli paydo bo'lib, chakana bank xizmatlarini yetkazib berishning muqobil kanallari (telefon markazlari, bankomatlar hamda internet orqali elektron xizmatlar) rivojlandi. Elektron yetkazib berish tizimi, ayniqsa, past xarajatli va filiallarga nisbatan samaraliroq ekani bilan baholandi. Shu bilan birga, ma'lumotlar bazalari, kredit ballari tizimi hamda telefon bankingining keng qo'llanilishi chakana bank bozoridagi raqobatni kuchaytirdi [2].

Chakana bank xizmatlari asosan mijozlarga yo'naltirilgan bo'lib, ular jismoniy va yuridik shaxslarning turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, banklar turli daromad va yosh guruhlari hamda geografik hududlarga mos moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqish va yetkazib berish uchun ilg'or bozor tadqiqotlariga alohida e'tibor qaratmoqda [3, 4].

Mijozlarning bank tanlovi moliya institutlarining strategik rejalari uchun dolzarb masala hisoblanib, qulaylik, xizmat infratuzilmasi, obro' hamda foiz stavkalari asosiy omillar sifatida aniqlangan [5, 6]. Shu bilan birga, mijozlarning vaqt chegaralari va qulaylik talabining oshishi onlayn hamda mobil banking xizmatlarining rivojlanishiga turtki bo'lmoqda [7].

Chakana bank tizimida innovatsiyalar muhim rol o'ynaydi. Banklar mahsulotlarni ishlab chiqish va differensiyalash, biznes jarayonlarini qayta loyihalash, marketing faoliyatini takomillashtirish, texnologik yangilanishlarni joriy etish, shuningdek, elektron va mobil banking xizmatlarini rivojlantirish hamda xarajatlarni optimallashtirish orqali barqaror o'sishni ta'minlashga intilmoqda [8]. Shu bilan birga, yirik tijorat banklari chakana yo'naltirilgan segmentlar bo'yicha, jumladan iste'mol depozitlari, kreditlash va kichik biznes xizmatlari natijalarini yillik hisobotlarda aks ettirmoqda [9].

Global tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chakana bank xizmatlaridan olinadigan barqaror daromad banklarning korporativ va tijorat kreditlari, savdo hamda kapital bozorlaridagi faoliyatidan kelib chiqadigan o'zgaruvchanlikni muvozanatlashtirishga yordam beradi va past xavf bilan nisbatan yuqori daromad olish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar va MDH davlatlarida chakana bank xizmatlarining rivojlanishi asosan mijozlarning xarid qobiliyati, xizmat sifati va qulaylikka bo'lgan talabiga bog'liq [10, 11].

Joseph Stiglitz ta'lim kreditlarini davlat siyosatining muhim tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Uning fikricha, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlangan kredit tizimi ijtimoiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi [12]. Raqamli texnologiyalar esa ushbu tizimni samarali boshqarish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan talabalar uchun ta'lim kreditlarini raqamli texnologiyalar asosida taklif etish banklar uchun yangi mijozlar segmentini shakllantirish imkonini yaratadi.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, chakana bank xizmatlari banklarning barqarorligini oshirish, moliyaviy inklyuziyani ta'minlash va mijozlar ehtiyojlariga mos innovatsion xizmatlarni joriy etish orqali iqtisodiy rivojlanishga sezilarli hissa qo'shadi. Shu bois ilmiy tadqiqotlar va amaliy tajribalar banklar uchun chakana xizmatlar strategiyasini optimallashtirish va diversifikatsiyalash zarurligini asoslab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning maqsadi tijorat banklari tomonidan chakana bank xizmatlarini ko'rsatish amaliyotini tizimli o'rganish, xizmat turlarini aniqlash, ularning mijozlar ehtiyojlarini qondirishdagi samaradorligini baholash hamda xizmatlarni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma'lumotlari asosiy manba sifatida qo'llanildi. Bu orqali bank xizmatlarining turlari, hajmi va rivojlanish dinamikasi tizimli tarzda tahlil qilindi.

Tadqiqot jarayonida tahlil, sintez va qiyosiy usullar yordamida chakana bank xizmatlari tushunchasi hamda ularning bank operatsiyalari bilan o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Shuningdek, statistik tahlil asosida 2021–2025-yillar davomida kredit portfeli, depozitlar va boshqa bank xizmatlarining dinamikasi, ularning diversifikatsiya darajasi hamda barqarorligi baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Chakana bank xizmatlari banklar tomonidan jismoniy shaxslar va kichik biznes subyektlariga taqdim etiladigan mahsulotlar va xizmatlar majmuasi bo'lib, ular bankning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, mijozlar bazasini kengaytirish hamda bozor raqobatida pozitsiyasini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chakana bank xizmatlarini turkumlash, ularning har birini alohida baholash va samaradorligini o'lchash bank faoliyatini optimallashtirish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega.

Birinchi asosiy turkum — jismoniy shaxslarning mablag'larini jalb qilishga qaratilgan xizmatlar bo'lib, ushbu turkum asosan depozit mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Mazkur xizmatlar bankning resurs bazasini mustahkamlash, likvidligini oshirish va barqaror daromad manbaini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular bank uchun risklarni diversifikatsiya qilish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim indikator sifatida xizmat qiladi.

Ikkinchi turkum — jismoniy shaxslarning moliyaviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan mablag'larni joylashtirish xizmatlari hisoblanadi. Bunga iste'mol kreditlari, ipoteka kreditlari, ta'lim kreditlari va boshqa turdagi kredit mahsulotlari kiradi. Ushbu xizmatlar banklarga aholining turli moliyaviy ehtiyojlarini qondirish, kredit portfelini diversifikatsiya qilish hamda mijozlar bazasini kengaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular banklarning daromad manbalarini ko'paytirish va raqobatbardosh mahsulotlar taklif qilish orqali bozor pozitsiyasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi turkum — tranzaksion (oraliq) xizmatlar bo'lib, mijozlar bilan kundalik moliyaviy operatsiyalarni osonlashtiruvchi xizmatlarni o'z ichiga oladi. Bunga to'lov operatsiyalari, hisob-kitoblar, bank kartalari xizmatlari hamda elektron va mobil banking tizimlari kiradi. Ushbu xizmatlar mijozlar uchun qulaylik yaratadi, xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi va bank hamda mijoz o'rtasidagi uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlaydi. Shu tariqa, tranzaksion xizmatlar bankning chakana xizmatlar portfelini to'ldirib, ularni yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

Umuman olganda, chakana bank xizmatlarining ushbu uch asosiy turkumi bankning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, mijozlar ehtiyojlarini qondirish va resurslarni samarali taqsimlashda strategik ahamiyat kasb etadi. Ularning tizimli tahlili hamda rivojlanish dinamikasini kuzatish banklar uchun innovatsion xizmatlarni joriy etish, raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va mijozlar bazasini kengaytirish uchun zarur ilmiy asosni shakllantiradi.

Quyidagi 1-jadvalda O'zbekiston bank tizimida 2021–2025-yillarda jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hamda jalb etilgan depozitlarning dinamikasi aks ettirilgan.

1-jadval. O'zbekiston bank tizimida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar va jalb etilgan depozitlar dinamikasi (2021–2025-yillar, mlrd. so'm) [13]

Yillar	Kreditlar	Depozitlar
2021-y.	54 888	27 404
Davlat ulushi mavjud banklar	48 040	17 783
Boshqa banklar	6 848	9 620
2022-y.	69 496	37 306
Davlat ulushi mavjud banklar	55 854	23 007
Boshqa banklar	13 643	14 299
2023-y.	100 949	63 124
Davlat ulushi mavjud banklar	73 166	31 399
Boshqa banklar	27 783	31 725
2024-y.	148 621	86 345
Davlat ulushi mavjud banklar	76 866	37 523
Boshqa banklar	71 756	48 822
2025-y.	177 532	122 421
Davlat ulushi mavjud banklar	92 698	53 290
Boshqa banklar	84 835	69 130



2021–2025-yillarda O‘zbekiston bank tizimida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hamda jalb etilgan depozitlar sezilarli darajada o‘shish sur‘atlarini namoyon etdi. Umumiy kredit portfeli 2021-yilda 54 888 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib 177 532 mlrd so‘mgacha oshdi. Shu davr mobaynida depozitlar hajmi ham 27 404 mlrd so‘mdan 122 421 mlrd so‘mgacha ko‘paydi. Ushbu ko‘rsatkichlar chakana bank xizmatlarining jadal rivojlanishi hamda banklarning jismoniy shaxslardan moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi faolligini yaqqol namoyon etadi.

Davlat ulushi mavjud banklar kreditlar va depozitlar hajmi bo‘yicha yetakchi o‘rinni egallab kelmoqda, biroq boshqa tijorat banklarining ulushi ham sezilarli darajada oshgan. Masalan, kreditlar bo‘yicha boshqa banklar ulushi 2021-yilda 6 848 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilda 84 835 mlrd so‘mga yetgan. Shu bilan birga, depozitlar bo‘yicha boshqa banklar hajmi 9 620 mlrd so‘mdan 69 130 mlrd so‘mgacha oshgan. Bu holat xususiy banklarning chakana kreditlash va depozit jalb qilish bozoridagi faolligi ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, sohadagi o‘shish nafaqat kreditlash portfelining kengayishi, balki aholining bank xizmatlariga bo‘lgan ishonchi hamda moliyaviy resurslarni banklar orqali boshqarishga bo‘lgan talabning ortishi bilan ham bog‘liq. Shu bilan birga, davlat banklarining barqaror ulushi bozor muvozanatini saqlab turadi, xususiy banklar esa raqobatni kuchaytirib, xizmatlar sifatini oshirishga turtki beradi.

Shu tarzda, 2021–2025-yillarda chakana bank xizmatlari bozoridagi dinamikani tahlil qilish nafaqat moliyaviy barqarorlikni baholash, balki kelgusida banklar tomonidan mijozlarga yo‘naltirilgan xizmatlarni rivojlantirish hamda resurslarni samarali taqsimlash strategiyalarini ishlab chiqish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

2-jadvalda 2025-yilda tijorat banklari tomonidan ajratilgan kreditlar va jalb etilgan depozitlar tarkibi keltirilgan.

2-jadval. 2025-yilda O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar va jalb etilgan depozitlar hajmi hamda ulushi (mlrd. so‘m, foizda) [13]

Bank nomi	Kreditlar	Ulushi	Depozitlar	Ulushi
Jami	177 532	100,0	122 421	100,0
Davlat ulushi mavjud banklar	92 698	52,2	53 290	43,5
O‘zmilliybank	17 978	10,1	12 650	10,3
O‘zsanoatqurilishbank	9 864	5,6	7 093	5,8
Agrobank	9 228	5,2	9 393	7,7
Asaka bank	9 307	5,2	7 100	5,8
Xalq banki	21 356	12,0	4 995	4,1
Biznesni rivojlantirish banki	11 647	6,6	2 225	1,8
Mikrokreditbank	6 953	3,9	2 565	2,1
Aloqa bank	4 168	2,3	5 229	4,3
Turon bank	2 195	1,2	2 040	1,7
Boshqa banklar	84 835	47,8	69 130	56,5
Ipoteka-bank	23 758	13,4	5 930	4,8
Kapital bank	18 021	10,2	22 094	18,0
Hamkorbank	7 550	4,3	6 521	5,3
Ipak yo‘li bank	4 203	2,4	4 448	3,6
Orient Finance bank	4 447	2,5	3 578	2,9
Invest Finance bank	3 210	1,8	4 580	3,7
Tibisi bank	7 041	4,0	4 397	3,6
Davr bank	4 779	2,7	1 523	1,2
Anor bank	5 413	3,0	5 923	4,8
Trastbank	2 808	1,6	2 233	1,8
Boshqa banklar	3 606	2,0	7 902	6,5

2025-yilda O‘zbekiston tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar umumiy hajmi 177 532 mlrd so‘mni, depozitlar esa 122 421 mlrd so‘mni tashkil etdi. Umumiy ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, davlat ulushi mavjud banklar kreditlar bo‘yicha 52,2 foiz ulushga ega bo‘lib, barqaror yetakchilikni saqlab qolmoqda. Shu bilan birga, xususiy banklar jami kreditlar bo‘yicha 47,8 foiz ulushni egallab, bank tizimida raqobatning ortib borayotganini aks ettiradi.

Davlat ulushi mavjud banklar tarkibida eng yirik kredit hajmi Xalq banki (21 356 mlrd so'm, 12 foiz) va O'zmilliybank (17 978 mlrd so'm, 10,1 foiz) hissasiga to'g'ri keladi. Depozitlar bo'yicha esa eng katta ulush O'zmilliybank (12 650 mlrd so'm, 10,3 foiz) va Agrobank (9 393 mlrd so'm, 7,7 foiz)ga tegishli. Shunday qilib, davlat banklari kreditlash bo'yicha yetakchilik qilayotgan bo'lsa, depozit jalb qilishda raqobat nisbatan xususiy banklar tomonidan kuchaymoqda.

Boshqa tijorat banklarining umumiy kredit hajmi 84 835 mlrd so'mni (47,8 foiz), depozitlari esa 69 130 mlrd so'mni (56,5 foiz) tashkil etadi. Eng yirik xususiy banklar qatorida Ipoteka-bank (23 758 mlrd so'm kredit, 13,4 foiz), Kapitalbank (18 021 mlrd so'm kredit, 10,2 foiz) va Hamkorbank (7 550 mlrd so'm kredit, 4,3 foiz) ajralib turadi. Depozitlar bo'yicha eng yirik ulush Kapitalbank (22 094 mlrd so'm, 18 foiz) hissasiga to'g'ri keladi, bu xususiy banklarning aholidan moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi faolligini ko'rsatadi.

Shu tarzda, 2025-yil ma'lumotlari davlat va xususiy banklar o'rtasidagi muvozanatli raqobatni, kredit va depozit hajmlarining diversifikatsiyasi orqali chakana bank xizmatlari bozorining barqaror o'sishini tasdiqlaydi. Bu tendensiyalar banklarning mijozlarga yo'naltirilgan strategiyalarni rivojlantirish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatlarini yanada kengaytirayotganini ko'rsatadi.

Quyidagi 3-jadvalda O'zbekiston tijorat banklarining chakana xizmatlar ko'rsatish bo'yicha bank kartalari, bankomatlar, to'lov terminallari va infokiosklarga oid ma'lumotlar keltirilgan.

3-jadval. 2021-2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida tijorat banklari tomonidan chakana xizmatlar ko'rsatish ko'rsatkichlari [13]

Yillar	Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni (mln. dona)	O'rnatilgan to'lov terminallari soni (ming. dona)	O'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni (ming. dona)	To'lov terminallari orqali malga oshirilgan to'lovlar summasi (mlrd. so'm)
2021	25,8	438,4	11,8	81000,0
2022	27,1	433,4	12,9	111137,0
2023	34,2	434,0	20,4	177671,0
2024	46,2	429,3	26,6	254719,1
2025	62,0	426,2	29,9	326735,0

2021–2025-yillarda O'zbekiston tijorat banklari tomonidan chakana xizmatlarni ko'rsatish ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 25,8 mln donadan 62,0 mln donagacha oshib, besh yil ichida deyarli 2,5 barobar ko'paydi. Bu holat aholining bank xizmatlariga bo'lgan talabining ortganini hamda jismoniy shaxslarning naqd pulsiz to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchining mustahkamlanganini ko'rsatadi.

O'rnatilgan to'lov terminallari soni esa 2021-yilda 438,4 ming donani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda biroz kamayib, 426,2 ming donaga yetdi. Ushbu tendensiya, ehtimol, texnologik yangilanishlar va mavjud terminallardan samarali foydalanish orqali tranzaksion xizmatlarni optimallashtirish bilan izohlanadi. Shu bilan birga, to'lovlar umumiy hajmining oshishi terminallarning samaradorligi ortganini bildiradi.

Bankomatlar va infokiosklar soni 2021-yilda 11,8 ming donani tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 29,9 ming donaga yetdi. Bu ko'rsatkich banklarning mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish infratuzilmasini kengaytirayotganini hamda tranzaksion xizmatlar hajmini oshirayotganini tasdiqlaydi. Ayniqsa, 2023–2025-yillarda bankomatlar va infokiosklar sonining keskin ortishi chakana bank xizmatlarida raqamli strategiyalarning kuchayganini ko'rsatadi.

To'lov terminallari orqali amalga oshirilgan to'lovlar summasi 2021-yilda 81 000 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 326 735 mlrd so'mgacha oshdi. Bu nafaqat naqd pulsiz to'lovlarning kengayishini, balki banklarning chakana xizmatlar bozoridagi samaradorligi va mijozlar bilan moliyaviy aloqalarining mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Shu tariqa, 2021–2025-yillarda tijorat banklari tomonidan chakana xizmatlarni rivojlantirishda texnologik infratuzilmaning kengayishi va mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish strategiyasi izchil amalga oshirilgan.

So'nggi yillarda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bank tizimining asosiy tendensiyalaridan biri — masofaviy bank xizmatlari orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish ko'lamini kengaytirishdir. Bu jarayon chakana bank xizmatlarining raqamli transformatsiyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, avvalo mijozlar ehtiyojlarini tezkor va qulay qondirish, bank operatsiyalarini avtomatlashtirish hamda xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Masofaviy bank xizmatlari internet banking, mobil banking, elektron to'lov platformalari va virtual bankomatlar kabi kanallar orqali amalga oshiriladi. Ushbu xizmatlar nafaqat jismoniy shaxslar, balki kichik va o'rta biznes subyektlariga ham moliyaviy resurslarni samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga,



banklarning geografik cheklolrsiz xizmat ko'rsatish imkoniyati kengayadi, bu esa chakana bank xizmatlari bozorining barqaror o'sishi va raqobatbardoshligini oshiradi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, masofaviy bank xizmatlari orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar soni va ulardan foydalanish hajmi so'nggi besh yil davomida sezilarli darajada oshgan. Bu tendensiya banklarning texnologik infratuzilmasini rivojlantirish zaruratini, shuningdek mijozlarga yo'naltirilgan innovatsion xizmatlarni joriy etish va xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash strategiyasini taqozo etadi.

Quyidagi 4-jadvalda O'zbekiston bank tizimida 2021–2025-yillarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soniga oid ma'lumotlar keltirilgan.

4-jadval. 2021-2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni (mln. kishi) [13]

Yillar	Jami	Yuridik shaxslar	Jismoniy shaxslar
2021	14,57	0,82	13,75
2022	20,24	0,97	19,27
2023	30,00	1,16	28,84
2024	43,56	1,32	42,24
2025	52,92	1,46	51,46

2021–2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni sezilarli darajada oshdi. Umumiy foydalanuvchilar soni 2021-yilda 14,57 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda 52,92 mln kishigacha yetdi. Bu ko'rsatkich banklarning raqamli xizmatlarni joriy etish hamda chakana xizmatlar hajmini kengaytirish bo'yicha olib borayotgan faoliyatining samaradorligini yaqqol namoyon etadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar orasida jismoniy shaxslar yetakchi o'rinni egallaydi. 2021-yilda jismoniy shaxslar soni 13,75 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 51,46 mln kishiga yetgan. Ushbu tendensiya aholining naqd pulsiz to'lov tizimlariga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini hamda internet va mobil banking xizmatlaridan keng foydalanilayotganini ko'rsatadi.

Yuridik shaxslarning masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi soni ham o'sish tendensiyasiga ega: 2021-yilda 0,82 mln kishidan 2025-yilda 1,46 mln kishiga yetgan. Bu holat kichik va o'rta biznes subyektlarining ham masofaviy bank xizmatlaridan faol foydalanayotganini hamda tijorat banklarining biznes mijozlarga yo'naltirilgan xizmatlar strategiyasini izchil amalga oshirayotganini anglatadi.

Shu tariqa, 2021–2025-yillarda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining jadal o'sishi banklar uchun raqamli transformatsiyani kuchaytirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlash imkonini yaratadi. Ushbu tendensiya chakana bank xizmatlari bozorining barqaror o'sishini ta'minlab, innovatsion xizmatlarni joriy etish zaruratini yanada kuchaytiradi.

Umuman olganda, masofaviy bank xizmatlarining rivojlanishi banklar uchun yangi daromad manbalarini yaratish, operatsion xarajatlarni kamaytirish hamda mijozlar bilan uzoq muddatli aloqalarni mustahkamlash imkonini beradi. Shu asosda banklar nafaqat o'z raqobatbardoshligini oshiradi, balki chakana bank xizmatlari bozorida barqaror o'sishni ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Chakana bank xizmatlari jismoniy shaxslar va kichik biznes subyektlariga taqdim etiladigan moliyaviy mahsulotlar hamda xizmatlar majmuasi bo'lib, ular bankning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, mijozlar bazasini kengaytirish va bozor raqobatidagi pozitsiyasini mustahkamlashda strategik ahamiyatga ega. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chakana bank xizmatlarini turkumlash va ularning samaradorligini baholash bank faoliyatini optimallashtirish hamda moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

2021–2025-yillarda O'zbekiston bank tizimida jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar hamda jalb etilgan depozitlar sezilarli darajada oshdi. Umumiy kredit portfeli 54 888 mlrd so'mdan 177 532 mlrd so'mgacha, depozitlar esa 27 404 mlrd so'mdan 122 421 mlrd so'mgacha ko'paydi. Bu ko'rsatkichlar banklarning jismoniy shaxslardan moliyaviy resurslarni jalb qilishdagi faolligi va chakana bank xizmatlarining jadal rivojlanishini yaqqol aks ettiradi.

2025-yilda davlat ulushi mavjud banklar kreditlash bo'yicha yetakchilikni saqlab qolgan bo'lsa, xususiy banklar depozit jalb qilishda yuqori faollikni namoyon etdi. Shu bilan birga, xususiy banklarning kredit va depozit portfeli hajmining keskin oshishi bank tizimida raqobatning kuchayganini hamda xizmatlar sifatini yaxshilashga bo'lgan rag'batni oshirayotganini ko'rsatadi.



Chakana bank xizmatlarining texnologik infratuzilmasi, jumladan bank kartalari, bankomatlar, to'lov terminallari va infokiosklar sonining o'sishi mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish strategiyasini amalga oshirish imkonini yaratdi. Masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 14,57 mln kishidan 52,92 mln kishigacha oshib, banklarning raqamli transformatsiya va innovatsion xizmatlarni joriy etishdagi muvaffaqiyatini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, 2021–2025-yillarda chakana bank xizmatlarining rivojlanishi banklar uchun moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, mijozlar ehtiyojlarini qondirish hamda resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi. Ushbu tendensiya banklar uchun yangi daromad manbalarini yaratish, operatsion xarajatlarni optimallashtirish va uzoq muddatli mijozlar bilan aloqalarni mustahkamlashda strategik ahamiyat kasb etib, chakana bank xizmatlari bozorining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Business Week. Another Year in "Bank Heaven"? – 1994. – January 10.
2. Leyshon A., Thrift N. Lists Come Alive: Electronic Systems of Knowledge and the Rise of Credit Scoring in Retail Banking // *Economy and Society*. – 1999. – Vol. 28. – P. 434–466.
3. Smith C. P. Servicing the Coke Culture // *The Banker*. – 1993. – February. – P. 22–24.
4. Talmor S. After You // *The Banker*. – 1994. – March. – P. 74–76.
5. Kennington C., Hill J., Rakowska A. Consumer Selection Criteria for Banks in Poland // *International Journal of Bank Marketing*. – 1996. – Vol. 14. – P. 12–21.
6. Zineldin M. Bank Strategic Positioning and Determinants of Bank Selection // *International Journal of Bank Marketing*. – 1996. – Vol. 14. – P. 12–22.
7. Devlin J. Technology and Innovation in Retail Banking Distribution // *International Journal of Bank Marketing*. – 1995. – Vol. 13. – P. 19–25.
8. Gopinath S. Retail Banking: Opportunities and Challenges // *The IBA Banking Frontiers International Conference*. – Mumbai, 2005. – May 28.
9. Hirtle B. J., Stiroh K. J. The Return to Retail and the Performance of U.S. Banks. – 2005. – URL: <http://www.ssrn.com/abstract=873848>
10. Beidokhti A. A., Rezia A. H., Saboorynia M. A., Abdolshah M. Prioritizing the Main Influencing Factors of Service Quality Using the Hysteresis Model: A Case Study on Retail Banking // *Proceedings of the 21st Australasian Finance and Banking Conference*. – 2008.
11. Bhuiyan M. T. H., Islam N., Ahmed J. U. Service Quality in Retail Banking of Private Commercial Banks in Bangladesh // *International Conference on Global Commerce, Energy, Minerals, and the Environment*. – 2008.
12. Joseph Stiglitz. *Economics of the Public Sector*. – New York: W.W. Norton, 2000.
13. bank.uz – O'zbekiston banklari va bank xizmatlari haqida axborot portali.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100